

O‘ZBEKISTON TURISTIK SHAHARLARI INFRATUZILMASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MASALALARI



Tashtayeva Saida Kaxarovna

G.f.n., dotsent

[0000-0002-6960-5513]

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va shahar infratuzilmasiga ta’siri yoritilgan. Transport, mehmonxona, umumiy ovqatlanish, muhandislik-kommunikatsiya, servis va raqamli infratuzilmaning holati, muammolari ochib berilgan. Mamlakat turistik shaharlariga tushayotgan funktsional, ijtimoiy va ekologik yuklama baholangan. Barqaror rivojlanish sharoitida infratuzilmani zamonaviy standartlar asosida rivojlantirish va institutsional boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Shahar, turizm, infratuzilma, barqaror rivojlanish, rejalashtirish, raqamlashtirish.

Вопросы устойчивого развития инфраструктуры туристических городов Узбекистана

Аннотация. В данной статье освещается роль туристической отрасли в национальной экономике и ее влияние на городскую инфраструктуру. Выявлено состояние, проблемы транспорта, гостиничного хозяйства, общественного питания, инженерно-коммуникационной, сервисной и цифровой инфраструктуры. Оценивалась функциональная, социальная и экологическая нагрузка, падающая на туристические города страны. Разработаны научно-практические предложения по развитию инфраструктуры на основе современных стандартов и совершенствованию институционального управления в условиях устойчивого развития.

Ключевые слова: Город, туризм, инфраструктура, устойчивое развитие, планирование, цифровизация.

Pissues of sustainable development of infrastructure of tourist cities of Uzbekistan

Abstract. This article highlights the role of the tourism industry in the national economy and its impact on urban infrastructure. The state and problems of transport, hospitality, catering, engineering and communication, service and digital infrastructure have been identified. The functional, social and environmental burden on the country's tourist cities was assessed. Scientific and practical proposals have been developed for the development of infrastructure based on modern standards and the improvement of institutional management in the context of sustainable development.

Keywords: Acity, tourism, infrastructure, sustainable development, planning, digitalization.

Kirish. Jahon iqtisodiy makonida turizm aksariyat mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining muhim drayveriga aylanmoqda. Bu borada turistik shaharlar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ular turistlar oqimini jalb qiladigan asosiy markazlar bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va infratuzilmaviy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va mamlakatning xalqaro nufuzini oshiradi. Shu bois, turistik shaharlarni rejali va barqaror rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston ham turizm tarmog‘ini strategik soha sifatida belgilab, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb hisobladi va tegishli islohotlarni amaliyotga joriy etmoqda. Xususan, 2018 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston

Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yildagi “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”, 2024 yilda O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi davlat hujjatlarida Respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish vazifalari ko‘zda tutilgan va bu bo‘yicha keng

ko‘lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shuningdek, moddiy va nomoddiy hamda tabiiy meroslarni ro‘yxatini tuzish, saqlash va foydalanishga oid “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” davlat Qonuni va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Material va metodlar. Turistik shaharlar infratuzilmasining mazmun-mohiyatini o‘rganish va tushunchaga aniqlik kiritish maqsadida nazariy-tadqiqot metodi qo‘llanilib, olimlarning ta‘riflari taqqoslandi va umumiy xulosalar olindi.

Turistik shaharlar infratuzilmasini empirik tadqiq etish uchun respublikaning 5 ta turistik shahri olindi va servis xizmati darajasi va obyektlar holati kuzatuv metodi orqali baholandi, hududiy-qiyosiy va statistik metodlardan foydalanib, shaharlar taqqoslandi va turistik salohiyati va o‘shish darajasi aniqlandi.

Respublika turistik shaharlarini oldindan to‘g‘ri rejalashtirish uchun bu boradagi jahon shaharlari-Barselona, Singapur, Venetsiya, Amsterdam, Kioto, Islandiya, Antaliya shaharlari tajribasi kompleks va tizimli yondashuv asosida kontent tahlil qilindi, jahon standartlari o‘rganildi va zarur natijalar olindi.

Olingan natijalar. Turizm sohasi oldida turgan murakkab muammolarni hal etish, shahar infratuzilmasini talab darajasida shakllantirish, ekologik barqarorlik, madaniy asrab-avaylash va iqtisodiy rivojlanishni o‘zaro mutanosib rivojlantirib borish borasida dunyoda bir qancha tashkilotlar faoliyat yuritmoqda, olimlar ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishmoqda, rivojlangan davlatlarda o‘ziga xos tajribalar to‘plangan.

Infratuzilma-bu xalq xo‘jaligining tashkiliy jihatdan alohida bo‘linmalarining ierarxik ravishda tashkil etilgan to‘plami bo‘lib, moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasining asosiy tarmoqlari faoliyatini ta‘minlash va ularga xizmat ko‘rsatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar yig‘indisidir.

Hozirgi vaqtda dunyo bo‘yicha "turistik infratuzilma" tushunchasining mazmun mohiyatini aniq ochib beradigan, kelishilgan ta‘rif yo‘q, chunki berilgan obyekt yoki obyektlar (hodisalar) sinfini ularga o‘xshashlardan ajratib turadigan muhim xususiyatlarning yaxlit majmui shakllantirilmagan. Shunga qaramay, ko‘pchilik olimlar fikrini

umumlashtirgan holda, quyidagicha ta‘riflash mumkin.

Turizm infratuzilmasi deyilganda turistik mahsulotlarni shakllantirishda (ishlab chiqarishda) ishtirok etuvchi tarmoqlar (transport, aloqa, axborot vositalari, kommunikatsiya tarmoqlari, energetika, suv ta‘minoti, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi, kommunal xo‘jaligi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, joylashtirish vositalari, savdo xizmati ko‘rsatish, ovqatlanish korxonalarini, madaniy va sport inshootlari, moliyaviy tashkilotlar, huquqni himoya qiluvchi idoralari) va unga qo‘shimcha turizm sohasini boshqaruvchi majmua tushuniladi.

Turistik infratuzilmadan tashqari, har bir shaharda (hududda) ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma mavjud. Bu maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo, ovqatlanish, aloqa, tibbiy, madaniy-ma‘rifiy va boshqa ko‘plab xizmat turlari muassasalari tomonidan taqdim etilgan infratuzilma bo‘lib, u mahalliy aholiga ham, vaqtincha ushbu aholi punktida (hududda) bo‘lgan sayyohlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan va turistik istemol darajasi ham uning rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Ko‘pincha turizm infratuzilmasi turizm sanoati, rekreatsion infratuzilma, turizmning moddiy-texnik bazasi bilan sinonim sifatida qaraladi. Ushbu noaniqlik turizm va rekreatsion faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishning eng muhim resurs omili-turizm infratuzilmasining mohiyatini tushunishni murakkablashtiradi. Uning statistikasini to‘g‘ri tashkil etishda ham qiyinchilik yuzaga keladi [1].

Turizm infratuzilmasiga oid tadqiqotlar P.Xoll, R.Sharpley, G.Crouch, Kuskov A.S., Djaladyan Y.A., Kiprina Y.N., Kvartal’nov V.A., Zorin I.V., To‘xliiev I.S., Mamatqulov X.M., Norchaev A.N. va boshqa olimlarning ishlarida aks etadi.

Ilmiy adabiyotlarda turistik infratuzilma iqtisodiy faollikni ta‘minlovchi kompleks tizim sifatida talqin qilinadi (Sharpley, 2009). U transport, joylashtirish, muhandislik-kommunal xizmatlar, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari va madaniy obyektlarni o‘z ichiga oladi. Turistik raqobatbardoshlik infratuzilmaning sifat va samaradorligiga bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta‘minlamasdan turib uzoq muddatli turistik o‘shishga erishish mumkin emas (Hall, 2011).

Turistik faoliyatni to'g'ri rejalashtirish orqaligina maqsadga erishish, ya'ni maksimal iqtisodiy foyda olish va aholini hayot sifatini oshirish mumkin. Turizm infratuzilmasiga oid jahon miqyosida qabul qilingan standartlar va xalqaro me'yorlar belgilangan. Ular asosan xizmat sifati, xavfsizlik, barqarorlik va qulaylikni ta'minlashga qaratilgan.

Bu boradagi jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, dunyodagi yirik turistik markazlar infratuzilmani jahon standartlari asosida rivojlantirishdi va katta iqtisodiy samaradorlikka erishdi. Masalan, Barselona turizmni diversifikatsiya qilish modelini qo'lladi va turlarini ko'paytirdi (madaniydan tashqari sport, gastroturizm, tadbirlar, biznes va b.) va bu bilan turistlar oqimini yil davomida barqarorlashtirishga erishdi, hamda turist o'rtacha sarfini oshirdi. Dubay shahar brendini global darajaga ko'tardi so'ngra qimmat lyuks xonalar, tematik parklar taklif etdi. Amsterdam kreativ hududlar, kreativ iqtisodiyotga ahamiyat berdi. Umuman olganda, har bir shahar o'z sharoitidan kelib chiqib, turizmdan katta iqtisodiy daromad olish uchun quyidagi tamoyillarga asoslanishdi: turistlar sonini oshirish, turistning o'rtacha sarfini oshirish, turistning qolish muddatini uzaytirish.

Parij, Barselona, Singapur, Dubay, Istanbul kabi dunyoning yetakchi turistik shaharlari turizm infratuzilmasini to'g'ri rejalashtirish asosida iqtisodiy rivojlanish, madaniy yuksalish va mashhurlikni qo'lga kiritgan dunyoviy shaharlardir.

O'zbekiston ham o'zining dunyoga mashhur turistik markazlari-Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib bormoqda. Ushbu shaharlar orqali mamlakat dovrug'i dunyoga taralmoqda va O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda xorijdan kelgan sayyohlar soni 11,7 mln. ni tashkil etdi, bu o'tgan yil darajasiga nisbatan 3,7 mln, ya'ni 46,8 % foizga ortiq va rekord ko'rsatkichni namoyon qildi. Prognozlar 2028 yilda 16-17 mln., 2030 yilga 20 mln. xorijlik turistlarni jalb etishni ko'zda tutadi. Ichki sayyohat qilganlar esa bu yilda barcha safarlar 23,7 mln. ga teng bo'lgan.

Unga mos holda turizm infratuzilmasi ham rivojlanib bordi. 2025 yilda 954 ta yangi joylashtirish ob'ektlari ishga tushirilgan. Talab

ortib borishi bilan turistik korxonalar soni 662 taga ortib, jami 4348 tani tashkil etdi. 784 ta santar-gigiena punktlari ta'mirlangan. Gid va ekskursiyalar bo'yicha mutaxassislar 4345 tani tashkil etdi. Natijada mamlakatga 4 mlrd. dan ortiq chet el valyutasi kiritilgan. Jami 200 ta davlatdan turistlar tashrif buyurgan. Natijada turistik shaharlar salohiyati ortib bordi.

Quyida shaharlarning turistik resurslari, jozibadorligi va turistlarni qabul qilish hajmiga ko'ra o'sish darajasi baholangan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston shaharlarining turistik salohiyati

| № | Shaharlar | Turistik ixtisoslashuvi | O'sish | Asosiy turistik resurslari |
|---|------------------------------|---|--------------|---|
| 1 | Samarqand shahri va viloyati | Tarixiy-madaniy, diniy-ziyosat, festival, gastronomiya | juda yuqori | Registon, Shohi Zinda, Bibi-Xonim, Go'ri Amir, Ulug'bek rasadxonasi, Siyob |
| 2 | Buxoro | Tarixiy-madaniy, diniy, ziyorat, etnografik, gastronomik | yuqori | Ark qal'asi, Poyi Kalon majmuasi, Ismoil Somoniy, Labi Hovuz, Chor Minor |
| 3 | Toshkent | Poytaxt, tranzit turizm, biznes, madaniy, tarixiy, shahar turizmi | o'rta-yuqori | Hazrati Imom masjidi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Amir Temur maydoni, muzeylar |
| 4 | Xiva | Eksklyuziv tarixiy, madaniy, etnografik | yuqori | Ichanqala, Kalta-Minor, Tosh Hovli saroyi, Kunya Ark, Juma masjidi |
| 5 | Shahrisabz (atroflari bilan) | Tarixiy-madaniy, ziyorat, ekoturizm, agroturizm | ustuvor | Oqsaroy, Ko'k-Gumbaz masjidi, Dorud-Tilovat, Dorusaodat majmualari |

Turizm shaharlarini barqaror rivojlantirish tamoyillari - resurslardan oqilona foydalanish, madaniy merosni asrab-avaylash, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish, uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillarni amalga oshirishning moddiy texnik asosi esa shahar infratuzilmasi hisoblanadi. U nafaqat xizmat ko'rsatuvchi balki, aholi hayoti farovonligi va shahar iqtisodiy faoliyatini rivojlantiruvchi kompleks tizimdir. So'nggi yillarda O'zbekiston o'zining turistik landshaftini o'zgartirishda katta yutuqlarga erishildi. Hukumat infratuzilmani modernizatsiya qilish, shu jumladan tarixiy joylarni qayta qurish va yangi sayyohlik zonalarini yaratish uchun katta mablag' sarfladi. Ipak yo'lining diqqatga sazovor joylari bilan mashhur bo'lgan Samarqand, Xiva va Buxoro kabi shaharlar zamonaviy qulayliklarni o'zida mujassam etgan holda tarixiy jozibasini saqlab qolish uchun tekshirilmogda. Tashrif

buyuruvchilar qadimiy arxitekturani o'rganishlari va qulay sayohat qilish uchun interaktiv muzeylar va mobil ilovalar kabi ilg'or sayohat xizmatlaridan osongina foydalanishlari mumkin.

O'zbekistonda sayyohlik buni yangi turar joy obyektlari sonining keskin o'sishi bilan ham bog'liq. 2025 yilning dastlabki to'qqiz oyida mamlakatda 836 ta yangi turar joy binolari, shu jumladan 106 ta mehmonxona, 226 ta yotoqxona va 460 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etildi. Ushbu kengayish natijasida mavjud turar joylarning umumiy soni 6600 dan oshdi, bu sayyohlar uchun 177000 dan ortiq joyni tashkil etadi.

O'zbekistonning mehmonxona sektori o'sishi bilan Marriott, Swissotel va Doubletree by Hilton kabi xalqaro mehmonxona brendlari Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda o'z vakolatxonalarini ochmoqda. Ushbu o'zgarishlar hashamatni sevuvchilar ham, byudjetli sayohatchilar ham sifatli turar joy topa olishlarini ta'minlaydi, bu esa mamlakatning sayyohlik maskani sifatida jozibadorligini yanada oshiradi.

O'zbekistonning sayohat qulayligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlari transport infratuzilmasini yaxshilashda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Eng ko'zga ko'ringan yutuqlardan biri bu "Afrosiyob" tezyurar poyezdlari bo'lib, ular Toshkent, Samarqand va Buxoro o'rtasida tez va qulay qatnovni ta'minlaydi. Ushbu poezdlar quruqlikdagi transportni modernizatsiya qilish bo'yicha katta sa'y-harakatlarning bir qismi bo'lib, sayohatchilarga qolish vaqtida bir nechta yo'nalishlarga tashrif buyurishni osonlashtiradi. Aeroportlar modernizatsiya qilinmoqda, terminallar kengaytirilib, raqamli xizmatlar ko'paymoqda. Yer usti transportida yo'llar ta'mirlanib, metro va avtobus marshrutlari kengaydi, avtomobil, velosiped prokatlarining qulay yetishish variantlari paydo bo'ldi. Elektron viza mamlakat turizmida katta sakrash qildi, 96 ta davlatga elektron viza ochildi. Xavfsizlikni oshirish maqsadida videokuzatuvlar o'rnatilmoqda. Politsiya patrul va huquqni himoya qilish tartibi xizmatlari kuchaytirilmoqda [2].

Yevropa, Xitoy, Koreya, Yaqin Sharq mintaqalariga O'zbekistonning bir qancha shaharlaridan marshrutlar safi kengaytirildi. London, Pxuket, Urumchi, Tel-Aviv kabi shaharlarni Buxoro, Termez, Nukus bilan bog'lovchi havo yo'llari marshrutlari ishga tushdi. Xalqaro festivallarning turlari ko'paydi,

Mo'ynoqda "Stixiya", Urgutda qishloq turizmini avtomobil sporti bilan bog'lovchi Paraplanerizm festivali"-ekstremal turi shakllandi, Samarqandda "Palov" festivali, Baxmalda "Olma", Namanganda "Asal" festivallari tashkillashtirildi.

Biroq infratuzilmaning jadal rivojlanishi bilan bir qator muammolar ham uchraydi. Xususan:

-Avia va temir yo'l reylarining mavsumiy yuklama vaqtida yetishmasligi va xizmatlar sifatining standartlarga javob bermasligi;

-Ichki yo'llar sifatining talab darajasida emasligi;

-Qishloq turizmi va ekoturizm hududlarida joylashtirish vositalarining yetishmasligi va infratuzilma sifatining pastligi;

-Turistik mavsum vaqtida mehmonxona o'rinlarining yetishmasligi;

-Malakali, til biluvchi gid va turliderlarning yetishmasligi;

-Mehmonxonalar va turistik obyektlarda turistlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifatining jahon standartlari talablariga mos kelmasligi;

-Turistik ma'lumotlarning to'liq va tizimli emasligi;

-Internet tezligining sustligi va yagona axborot platformalarining yetarlicha integratsiya qilinmaganligi;

-Ayrim hududlarda axborot xizmatlarining yetarli emasligi;

-Muhandislik-kommunikatsiya va chiqindilarni bartaraf etish muammolari;

-Turistik shaharlarning ayrimlarida infratuzilmaning eskirganligi va yangi texnologiyalarning joriy etilmaganligi;

-Turizm hanuzgacha an'anaviy shaharlardagina mujassamlangani va hududiy diversifikatsiya muammolari;

-Turistik shaharlarga turistik yuklamaning ortishi;

-Madaniy meros obyektlariga bosimning ortishi;

-Ekologik va barqaror rivojlanish muammolari.

Turistlarning haddan ziyod ko'payib ketishini, ijtimoiy va ekologik bosimni to'g'ri boshqarish bo'yicha ham dunyoda tajribalar ko'p. Masalan, Barselonada turistik zonalarni diversifikatsiya qilish, yangi mehmonxonalar uchun litsenziyani bekor qilish, Amsterdamda qo'shimcha soliq siyosati va turistlarni shahar

atrofiga yo'naltirish siyosati yuritildi. Kiotoda turistik mavsumni yil davomida teng taqsimlash strategiyasi qo'llandi. Islandiya tabiiy turizmida ekotizimlarga zararni kamaytirish maqsadida turistlar soniga nisbatan infratuzilmani moslashtirish choralari ko'rdi.

Ijtimoiy yuklama, masalan, Barselonada turistlar soni mahalliy aholidan bir necha bor ortib ketganda, turistik zonalar qayta rejalashtirilgan, qisqa muddatli ijara litsenziyalari cheklangan, Amsterdamda shahar markazidan tashqari hududlar marketingi rivojlangan. Kiotoda madaniy hududlarda ortiqcha turist to'planganda, jamoat transportida maxsus turist yo'nalishlari ochilgan, madaniy odob-axloq qoidalari kiritilgan, mahalliy aholi uchun imtiyozli xizmatlar belgilangan, natijada aholi va turistlar o'rtasidagi nizolar bartaraf etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikamizda turistik oqim an'anaviy turistik shaharlarda ortmoqda va istiqbolda turizmning rivojlanib borishi bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Tarixiy shaharlarda infratuzilma obyektlarning yuklamasi mavsumiy oshmoqda, klassik o'erturizm kuzatilmasada, madaniy ob'ektlarda mavsumiy zichlik yuzaga kelmoqda. (2-jadval). Ayniqsa, aprel-may, sentabr-oktabr kabi qulay mavsumda Buxoro va Samarqand shahriga turistik yuklama juda yuqori. Bu esa kelgusida shaharlarni rejalashtirishda hisobga olishni taqozo qiladi.

2-jadval. O'zbekiston turistik shaharlariga tushayotgan yuklama

| Shaharlar | Turistik yuklama | Mavsum | Ijtimoiy ta'sir | Ekologik va madaniy meroslarga ta'sir |
|------------|------------------------------|----------------------------------|--|--|
| Samarqand | Tarixiy markazda juda yuqori | May ovidan oktyabrgacha | Infratuzilma bosimi, joylashtirish vositalari tanqisligi | Atrof muhitda bosim (shu jumladan madaniy zonaga mexanik ta'sir) |
| Buxoro | Tarixiy markazda yuqori | May-oktyabr | Ko'chalarda ijtimoiy faollik | Arxitektura joylarida yuklama |
| Xiva | O'rta-yuqori | May-oktyabr, festiyallar davrida | Tarixiy obyektlarda bosim | Devorlar va ob'ektlarga ta'sirklama |
| Toshkent | O'rta | Tadbirlar vaqtida yuqori | Ijtimoiy xizmatlarga bosim | Transport infratuzilmasida tirbandlik |
| Shahrisabz | O'rta, 1 kunlik | Aprel-iyun, sentyabr-oktyabr | Turistlar-ning bir yerda to'planishi | Infratuzilma bosimi, nuqtaviy |

Jadval muallif tomonidan tuzilgan

Statistik ma'lumotlar [3] asosida misol tarzida Samarqand va Toshkent shaharlarini turistik yuklamasini hisoblaymiz: Aholi soniga nisbatan turistik yuklamani quyidagi

formula orqali aniqlaymiz:

$$\text{Turistik yuklama} = \frac{\text{Yillik turistlar soni}}{\text{Aholi soni}}$$

Samarqand shahri - Turistik yuklama=4500000:600000=7,5. Har bir mahalliy aholi soniga nisbatan turistlar soni 7 kishini tashkil etadi. Toshkent shahri-Turistik yuklamasi=4000000:3000000=1,3. Har bir shaharlik aholiga turistlar soni 1-1,5 taga teng. "European Tourism Indicator System (ETIS)" mezonlariga ko'ra 1 aholiga 1-3 turist -yaxshi va barqaror baholanadi, 3-5- ta yuqori (infratuzilma tayyor bo'lishi kerak), 5 tadan ortiq bo'lganida ortiqcha bosim xavfi kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda turizm rivojlanib borishi va sayyohlar sonining ortib borishi bilan bir tomondan yo'llar yaxshilanib, zamonaviy mehmonxonalar, turistik tashkilotlar, markazlar tashkil etilib, shahar ko'rki va mavqeyi yuksalsa, ikkinchi tomondan, asrlar davomida asrab kelinayotgan tabiiy va tarixiy-madaniy meroslarga turistik "bosim"ning ortishi shaharlar infratuzilmasini zararlashi, xavf ostiga qo'yishi mumkin. Turistik oqim va aholi sonining ortishi Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi shaharlar infratuzilmasining funksional imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Yashash joylari narxi oshishi, transport tirbandliklari, madaniy ob'ektlarni restavratsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, turistik shahar infratuzilmasini barqaror rivojlantirishning nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish va oldindan oqilona rejalashtirishda quyidagi takliflarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

-O'zbekiston turistik shaharlarini rejalashtirishda ularning nafaqat turistik funksiyasi, balki, mahalliy aholining tabiiy ko'payishi, ichki migratsiya, ijtimoiy xizmatlar, iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish;

-O'zbekiston turistik shaharlarini barqaror rivojlantirishda differentsial ixtisoslashuv modelini qo'llash, shaharlarni muayyan turizm turlariga ixtisoslashtirish va klasterlarni tashkil etish;

-turistik yukni oqilona boshqarish: turist va mahalliy aholi nisbatini muntazam monitoring qilib borish, madaniy obyektlarga kirish kvotasi belgilash, onlayn biletlash, vaqt bo'yicha taqsimlash, turistik soliqni infratuzilmaga

yo'naltirish;

-raqamlashtirish va marketingni yanada rivojlantirish, elektron vizalarni amalga oshirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va reklama uchun bloggerlarni jalb qilish, maxsus mobil ilovalarni, yagona milliy turistik platforma yaratish, Real-time turistik yuk monitoringi, onlayn navigatsiya va gid tizimini joriy etish;

-mahalliy aholi manfaatlarini ta'minlash, aholini qoniqish indeksi monitoringini olib borish, turizmdan tushgan daromadni bir qismini mahalliy infratuzilmaga yo'naltirish;

-integratsiyalashgan transport tizimini shakllantirish, elektrotransport va piyodalar hududini kengaytirish, shahar markazida avtotransportni cheklash, velosiped infratuzilmasini yaratish, turistik navigatsiya belgilarini o'rnatish, turistik "shatl" tizimiga o'tish va b.

-turizm turlarini va hududlarini diversifikatsiya qilish, lyuks segmentini rivojlantirish, turist o'rtacha sarfi va qolish muddatini 6-7 kunga uzaytirish, festival va tadbirlar turizmini, yangi turizm turlari-sanoat, ilmiy, harbiy, geologik kabi noan'anaviy turlarini rivojlantirish;

-ekologik barqarorlikni ta'minlash, chiqindini boshqarish, suv tejamkor texnologiyalarga o'tish, yashil hududlarni kengaytirish, quyosh panellaridan foydalanish, yashil mehmonxona standartlariga o'tish.

Turistik shaharlar infratuzilmasini barqaror rivojlantirish - bu faqat sayyohlar sonini oshirish emas, balki hududning barqaror rivojlanishi, madaniy merosni asrash va mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, ular o'rtasidagi muvozanatni saqlash orqali uzoq muddatli rivojlanishga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Capocchi A. and other. Overtourism: A Literature Review to Assess Implications and Future Perspectives. Sustainability 2019, 11(12).
2. Chaney D., Serapxin H. A systematic Literature review and lexicometric analysis on overtourism: Towards an ambidextrous perspective.// Journal of Environmental management. Volume 347, 1 december 2023.
3. Karimov M, Okmullaev P., Marty P., and Saidmamatov O. Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road. Economies 2025, 13(9), 250; <https://doi.org/10.3390/economies13090250>
4. Филин С.А., Гагарина Г.Ю. Туристская инфраструктура исторических городов, поселений и туристско-рекреационных зон.// Научный журнал Сервис PLUS 2012, №1.
5. Sharpley R. Tourism Development and the Environment: Beyond Sustainability'- London, 2009.
6. Hall C., Tourism in the Green Economy.- London, 2011.
7. Косманев А.Л. Туристская инфраструктура в региональных исследованиях.// Вестник ВГУ, серия: География. Геоэкология, 2012, № 2. С.-6.
8. Маматкулов Х.М., Абдухамидов С.А., Хамитов М.Х. Туризм инфратузилмаси. Ўқув қўлланма.- Самарқанд, 2020.
9. Tashtayeva S., Yoqubov O. Yashil urbanizm-zamonaviy shaharlar rivojlanishining asosiy yo'nalishi sifatida. // Fan va jamiyat. №122.-Nukus, 2022.
10. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-tourism-sector-shows-steady-growth-in-january-november-2025/'utm_source=chatgpt.com
11. <https://www.xabar.uz/jamiyat/2025-yilda-ozbekistonga-qancha-turist-kelgani-malum-qilindi#>
12. https://www.travelandtourworld.com/news/article/uzbekistans-rising-tourism-how-samarkand-tashkent-and-bukhara-are-becoming-the-heart-of-central-asia-travel-everything-you-need-to-know-about-the-transformation/'utm_source=chatgpt.com#google_vignette.